


## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI 2018/2019-o'quv yili boshiga

Xalq ta'limi vazirligi hamda boshqa idoralarning umumta'lim muassasalari, shuningdek, mulkchilik va tashkiliy – huquqiy shaklidan qat'iy nazar litsenziya asosida nodavlat xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan davlat statistika hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha 2018/2019-o'quv yili boshiga umumiy o'rta ta'limning asosiy statistik ko'rsatkichlari shakllantirildi.


Mamlakatlardagi umumiy o'rta ta'lim darajasi Xalqaro tashkilotlar tomonidan ushbu statistik ko'rsatkichlar orqali belgilanadi.

### O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi statistik ma'lumotlar manbalari




O'zbekiston Respublikasida 2018/2019-o'quv yili boshiga jami umumta'lim muassasalari soni 9774 tani tashkil etib, ulardan 6044 nafari (62 %) qishloq joylarida, 3730 nafari (38 %) shahar joylarda joylashgan.

### Umumta'lim muassasalarining shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, %



2017/2018-o'quv yilining mos davriga nisbatan taqqoslanganda umumiy o'rta ta'lim muassasalari soni 0,6 foizga (56 ta) oshdi.

### Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlik



O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich (1-4-sinflar) va o'rta (5-9-sinflar) ta'lim bosqichlariga bo'linadigan, davomiyligi 11 yildan iborat tekin majburiy umumiy o'rta ta'lim joriy etilgan.

## Umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni

2018/2019-o'quv yili boshiga



Sinf guruhlari bo'yicha  
umumta'lim muassasalari  
o'quvchilari soni, ming. kishi

1 - 4 sinflar - 2505,9

5 - 9 sinflar - 2586,4

10 - 11 sinflar - 737,3

Mashg'ulotlar bitta  
tilda olib boriladigan  
maktablar soni -  
**8443 ta**

Mashg'ulotlar turli  
tillarda olib boriladigan  
maktablar soni -  
**1230 ta**

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar soni Xorazm viloyatida tashkil etilgan maktab hisobiga bittaga oshdi, boshlang'ich maktablarning jami soni esa 10 taga ko'paydi.

2018/2019-o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining jami o'quvchilari soni 5850,9 ming kishini tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, o'quvchilar soni qariyb 10 % ga o'sdi. O'quvchilar sonining ortishi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 10-11-sinflarning tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, ulardagi o'quvchilar soni o'tgan yilga nisbatan 61 % ga (449,8 ming kishiga) ko'paygan.


**2018/2019-o'quv yili boshiga hududlar kesimida  
umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni, ming kishi**

	2017/2018-o'quv yili boshiga	2018/2019-o'quv yili boshiga
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>5271,3</b>	<b>5850,9</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	294,7	326,5
viloyatlar:		
Andijon	482,2	532,8
Buxoro	284,1	313,6
Jizzax	225,1	247,3
Qashqadaryo	543,5	601,4
Navoiy	154,8	171,2
Namangan	426,1	474,3
Samarqand	612,9	683,5
Surxondaryo	422,1	472,3
Sirdaryo	134,7	148,8
Toshkent	430,6	479,0
Farg'ona	563,3	627,7
Xorazm	308,9	341,3
Toshkent sh.	388,4	431,3

2018/2019-o'quv yili boshiga mashg'ulotlar smenaliligi bo'yicha umumta'lim muassasalari sonining taqsimlanishi quyidagicha: 20,2 % maktab bir o'quv smenasida (2017/2018-o'quv yili boshiga 25,9 %), 79,6 % maktab ikki o'quv smenasida (2017/2018 o'quv yili boshiga 79,3 %) hamda 0,1 % maktab uch o'quv smenasida ishlaydi.


Smenalar bo'yicha ta'lim olayotgan bolalar sonining taqsimlanishi quyidagicha: birinchi smenada 65,2 % (2017/2018-o'quv yili boshiga 68,5 %), ikkinchi smenada 34,7 % (2017/2018-o'quv yili boshiga 31,4 %), uchinchi smenada 2017/2018-o'quv yili boshidagi kabi, ya'ni 0,1 % o'quvchilar ta'lim olmoqda.

### Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi\*, %



\* Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz


### Hududlar kesimida umumta'lim muassasalaridagi o'qituvchilarning ulushi \*, %



\* o'rindoshlarsiz

## Umumta'lim muassasalarining pedagog xodimlari

O'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz), kishi



### Umumta'lim muassasalari pedagog xodimlarining shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi

O'quv yili boshiga	Shahar joylarda, ming kishi	Qishloq joylarda, ming kishi
2017/2018	188,6	220,8
2018/2019	206,0	238,2

### Pedagog xodimlar umumiy sonida ayollarning ulushi

O'quv yili boshiga	Ayol-o'qituvchilar ulushi, %	Shu juladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, %
2017/2018	70.9	91.7
2018/2019	70.3	91.3

### 2018/2019-o'quv yilining boshida o'qituvchilar umumiy sonida pedagogik ta'lim olgan o'qituvchilar ulushi



*Ma'lumot uchun: 2017/2018-o'quv yili boshida ushbu ko'rsatkich 99,0 % ni tashkil etgan.*

Yuqoridagi grafik va diagrammalardan ko'rinib turibdiki, umumta'lim muassasalarining shtatdagi xodimlari 2018/2019 o'quv yili boshiga 8,5 foizga o'sdi va 444,2 ming kishini tashkil etdi. Shahar joylarida o'sish 8,4 % ga, qishloq joylarida esa 7,3 % ga yetdi.




Shu bilan birga, 2018/2019-o'quv yili boshiga oliy ma'lumotli o'qituvchilar sonining o'sishi 9,7 % ni, o'rta maxsus ma'lumotlilar - 2,9 % ni tashkil etdi.

Bu esa, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining o'qituvchilar safiga qo'shilayotganligini ko'rsatadi.

Jami o'qituvchilarga nisbatan ayol - o'qituvchilarning ulushi 2017/2018-o'quv yilidagi 70,9 % dan 2018/2019-o'quv yiliga kelib 70,3 % ga yetdi.

O'zbekiston Respublikasida bitta o'qituvchiga o'rtacha 13 nafar o'quvchi to'g'ri kelmoqda.


### 2018/2019-o'quv yili boshiga hududlar kesimida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi



Keltirilgan jadvaldan ko'rinadiki, bir nafar o'qituvchiga to'g'ri keladigan yuklama nisbatan ko'proq Toshkent shahrida - 20 o'quvchi, Toshkent O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim tizimi

va Andijon viloyatlarida bir nafar o'qituvchiga 15 o'quvchidan to'g'ri keladi. Bir o'qituvchi uchun 9 va 10 kishidan iborat eng kichik yuklama Navoiy viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etilgan.

### 2018/2019 o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalaridagi oliy va o'rta ma'lumotli o'qituvchilar ulushi, %



**MDH davlatlari umumta'lim muassasalarida  
oliy ma'lumotli o'qituvchilar ulushi**  
Jami o'qituvchilarga nisbatan % da

	<b>2015 yil</b>	<b>2016 yil</b>	<b>2017 yil</b>
Ozarbajjon	79	79	78
Armaniston	90	91	93
Belarus	93	93	94
Qozog'iston	89	91	91
Qirg'iz'iston	86	87	88
Moldova	90	90	91
Rossiya	86	87 <sup>1</sup>	87 <sup>1</sup>
Tojikiston	70	71	71
O'zbekiston	81	82	83

Manba: «Мониторинг показателей ЦУР в регионе СНГ 2015-2017» statistik to'plami

## Kunduzgi umumta'lim muassasalaridagi o'quv maqsadlarida foydalaniladigan shaxsiy kompyuterlar

(Har 1000 nafar o'quvchiga nisbatan; birlikda.)

	2015 yil	2016 yil	2017 yil
<b>Ozarbayjon - jami</b>	<b>48</b>	<b>47</b>	<b>47</b>
shahar	48	46	45
qishloq	48	48	49
<b>Armaniston - jami</b>	<b>58</b>	<b>61</b>	<b>62</b>
shahar	55	55	56
qishloq	64	70	72
<b>Belarus - jami</b>	<b>62</b>	<b>65</b>	<b>66</b>
shahar	54	56	58
qishloq	99	104	107
<b>Qozog'iston - jami</b>	<b>99</b>	<b>99</b>	<b>100</b>
shahar	87	90	89
qishloq	112	109	112
<b>Qirg'iziston - jami</b>	<b>18</b>	<b>17</b>	<b>20</b>
shahar	17	17	17
qishloq	18	17	21
<b>Moldova - jami</b>	<b>68</b>	<b>72</b>	<b>76</b>
shahar	53	57	61
qishloq	81	86	91
<b>Rossiya - jami</b>	<b>132</b>	<b>136<sup>1</sup></b>	<b>139<sup>1</sup></b>
shahar	121	124 <sup>1</sup>	127 <sup>1</sup>
qishloq	166	171 <sup>1</sup>	174 <sup>1</sup>
<b>Tojikiston - jami</b>	<b>27</b>	<b>29</b>	<b>29</b>
shahar	29	31	32
qishloq	27	27	27
<b>O'zbekiston - jami</b>	<b>34</b>	<b>35</b>	<b>32</b>
shahar	27	26	24
qishloq	42	44	41
<b>Ukraina – jami<sup>2</sup></b>	<b>74</b>	<b>74</b>	<b>81</b>
shahar	62	62	69
qishloq	99	100	110

<sup>1)</sup>Boshlang'ich, asosiy va umumiy o'rta ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim faoliyatini olib boradigan muassasalarda.

<sup>2</sup> Kompyuterlarning umumiy soni.

Manba: «Мониторинг показателей ЦУР в регионе СНГ 2015-2017» statistik to'plami

**Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish  
statistikasi boshqarmasi** (71) 230-80-69,  
(71) 230-81-62